

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILINING XORIJDA O'QITILISHI: TA'LIM NAZARIYASI VA AMALIYOTI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN MATERIALLARI**

**2024-yil 16-aprel**

**Toshkent – 2024**

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori ijrosini ta'minlash to'g'risi"dagi 2024-yil 18-yanvarda tasdiqlangan 16-sonli buyrug'iga 1-ilovasidagi 2024-yilda xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy texnik tadbirlar rejasi asosida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2024-yilning 16-aprelida "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani o'tkazildi.

Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlandi, maqolalarda o'zbek tilining xorijiy til sifatida o'qitishda qo'llanayotgan va foydalanish mumkin bo'lgan zamonaviy metodik yondashuvlar, axborot va pedagogik texnologiyalar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha o'zbek tilidan dars beradigan taniqli olimlar, metodistlar, o'qituvchilar bilan bir qatorda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

#### **Taqrizchilar:**

**G.Asilova** – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**G.Norimova** – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

#### **Tahrir hay'ati:**

**S.Muhamedova, N.Musulmanova, X.Kadirova, O.Abduhakimova, Y.Shirinova,**

**O.Turakulova, D.Elova, G.Iskandarova, Y.Do'smurodova**

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2024-yil 25-apreldagi 9-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.

## MULTILINGUALIZM MUHITIDA SHAKL VA MA'NO MUNOSABATLARINI O'QITISHNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI

Nozima Abduqodirova<sup>1</sup>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zga tili guruh talabalariga o'zbek tilini o'qitishda yuzaga keladigan muammolar haqida fikr yuritilgan bo'lib, ularni talabalarga oson o'qitishga oid yechimlar taklif qilingan. Frazemalar har bir milliy madaniyatning in'ikosi bo'lgani bois, multilingualizm muhitida ushbu til birliklari o'rtasida kuzatiladigan shakl va ma'no munosabati hodisalarini o'qitish ayniqsa, qiyinchilik tug'diradi. Darsning samarasini oshirish, talabaga tushunarli bo'lishi uchun metodik ta'minotni to'liq shakllantirish lozimligi va bunda o'qituvchi turli kitoblardan, taqdimot va zamonaviy metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqligi turli tavsiyalar bilan yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** *Multilingualizm muhiti, shakl va ma'no munosabati, frazemalarni o'qitish, frazeologizmlarda obrazlar.*

**Annotation.** This article considered about some problems that arise in teaching the Uzbek language to students of a foreign language group, and offers available solutions to make it easier for students to learn it. Since idioms are a reflection of each national culture, it would be difficult to teach the phenomena of the relationship's form and meaning observed between these language units in the environment of multilingualism. In order to increase the effectiveness of the lesson, to make it understandable to the students, it is necessary to fully form the methodical support, and the appropriateness of the teacher to use different books, presentations and modern methods for this has been highlighted with various recommendations.

**Key words:** environment of multilingualism, relation of form and meaning, teaching of idioms, images in idioms ...

Bilamizki, mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elatlar o'zaro ahil yashab kelmoqda. Shu bois, multilingualizm muhiti rivojlangan. Ta'lim to'g'risidagi qonunning I bob 5-moddasiga binoan, "irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanadi" [1, 1]. O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi har bir fuqaro 7 ta tilda ta'lim olishi mumkin. Bunda fuqaro o'z ona tilida bilan birga davlat tili bilan hamohang tarzda tahsil oladi. "O'zbekiston Respublikasida davlat tilini o'rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning

---

<sup>1</sup> Abduqodirova Nozima – *ToshDO'TAU 1-kurs magistranti*

**Iqtibos uchun:** Abduqodirova, N. (2024) Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari. // "O'zbek tilining xorijda o'qitilishi: ta'lim nazariyasi va amaliyoti" nomli xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjuman materiallari. 2024-yil 16-aprel. Toshkent – 2024. 112-116 b. DOI: 10.52773/tsuull.conf.2024.16.4/ZRUH9709


hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi" [2, 1]. Barcha ta'lim bosqichlarida multilingualizm jarayoni kuzatiladi. Mazkur maqolada multilingualizm muhitida ta'lim olayotgan bakalavriat bosqichi talabalariga o'zbek tilining shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishga doir masalalariga to'xtalamiz. O'zga tilli guruh talabari so'z boyligini oshirish maqsadida, ularga milliy-madaniy qirralarni ko'rsatish va lingvokulturologik birliklarini o'qitishning ahamiyati katta.

Ko'plab tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham shakl va ma'no turlari mavjud. "Ma'lumki, tildagi so'zlarning ma'lum qismi shakl yoki ma'nosiga ko'ra o'zaro aloqador butunliklarni tashkil etadi. Bunday butunliklardagi so'zlar ana shu xususiyatlariga ko'ra ikki guruhni tashkil qiladi: 1) omonimlar, omoshakllar, omofonlar, omograflar va paronimlar shakliga ko'ra; 2) sinonimlar, antonimlar esa o'zaro mazmun uzviyligi yoki zidligiga ko'ra alohida guruhga mansub bo'ladi" [3, 284]. Yuqoridagi ma'lumot o'zbek tilida ta'lim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, o'zga tilli talabaga bu biroz og'irlik qiladi. Shu bois, asosiy 4 turni: sinonim, antonim, omonim va paronimlarni o'qitish lozim. Maktabda bular qisman o'qitiladi, ularni takrorlamaslik uchun oliy ta'limda frazeologizmlarning sinonim, antonim va omonimligini o'qitish talabalar uchun qiziq. Keling, yangicha metodda tayyorlangan taqdimotni ko'rib chiqamiz. Darsda talabaning diqqatini jalb qilish maqsadida taqdimotni rangli fon, o'z o'rnida harflarning kattaligi va yozuv turlariga, zamonaviy animatsiyalarga ahamiyat berish lozim.

Frazemalarning turlarini qanday tushuntirish mumkin? Har bir tilda frazema mavjud bo'lib, frazemalar tilning milliy-madaniy kelib chiqishi, ajdodlar ruhi va milliy nafasini his qildiradi. Shu jihatidan, ikki tilda taqqoslab taqdimot tayyorlaymiz.

1-rasmda ko'rganimizdek, frazeologizmlarning ta'lim tiliga qarab, tarjimai bilan berish mumkin. Bu talabaga ona tilidagi frazeologizmlarni yodga olish va taqqoslashini yengillashishiga yordam beradi.

1-rasm



2-rasmda, o'zbek, rus va ukrain tillarda faol frazeologizmlardan namunalar berilgan. Namunada tilning lingvokulturologik aspektini unutmash lozim, shu maqsadda frazeologizmlarning timsollariga ahamiyat berilgan.

2-rasm



Qo'llanayotgan har bir ibora mag'zida turli ma'no yashirin. Yashiringan ma'noni holat orqali bilishimiz mumkin, xolos. Bundan tashqari frazeologizmlar sinonim, antonim va omonim bo'lishi mumkin. Keling birma-bir ko'rib chiqamiz.

Frazeologizmlar ma'no jihatdan bir so'zga tengligini yuqorida aytib o'tganimizdek, 3-rasmda ham shu jihatni ilgari surib jadvalni 3 qismga bo'lib olamiz. So'z, frazeologizm va uning sinonimi. Bu esa o'z o'rnida, nutq boyligini oshirish, takrorlardan qochish va o'zga til madaniyatni o'rganish uchun xizmat qiladi.

3-rasm

№	So'z	frazeologizm	Sinonim
1	Hursand	Og'zi qulog'ida	Boshi osmonda
2	Qaytarmaslik	Qo'lni yuvib qo'ltiqqa urish	Hafsalasi pir bo'lish
3	Qo'rqish	Kayfi uchib ketdi	Yuragi yorilayozdi
4	Yangilanish	Onadan tug'ilgandek	Yungi olingan qo'ydek
5	Qarilik	Kuni yetib kelgan	Bir oyog'i go'rda

4-rasmda berilgan "qo'y og'zidan cho'p olmagan" iborasi o'zbek tilining milliy-madaniy jihatini ochib beradi. Chunki, o'zbek madaniyatida "qo'y" semasi yuvoshlik, baraka, halollik kabilarni ifodalaydi. Shu kabi ma'lumotlarni dars

davomida tavsiflab berilsa, talabada o'zbek millatning nisbatan yangi, yaxshi qirralarni ochishga qiziqish uyg'onadi.

4-rasm

	So'z	frazeologizm	Antonim
1	Sergap	labi labiga tegmaydi	og'ziga cho'p solgan
2	Abjir	yerga ursa ko'kka sapchiydi	qo'y og'zidan cho'p olmagan
3	Tug'ilish	Dunyoga kelmoq	Hayotdan ko'z yummoq
4	Usta	Qo'li gul	
5	Xushko'rish	Qadamlariga hasanot	Ko'zim uchib turovdi o'zi

Frazeologizmlarning eng qiyinchilik tug'diradigan jihati bu omonimlik bo'lib, talabaga yozilishi bir xil so'zlarni kontekstga qarab qanday ma'nolarga ega ekanini tushuntirish lozim.

5-rasm

№	frazeologizm	Omonim
1	Boshga ko'tarmoq hurmat qilmoq	Boshga ko'tarmoq to'palon qilmoq
2	Ko'z yummoq vafot etmoq	Ko'z yummoq e'tiborsizlik qilmoq
3	Dam bermog damini berib tashlab ketmoq	Dam bermog hordiq
4	Ichagi uzilmoq kulgudan	Ichagi uzildi ochlikdan
5	Ko'z qismoq E'tibor tashlamoq	Ko'z qismoq Imo orqali rozilik

Umuman olganda, o'zbek tili boy, so'zlarning muqobil varianti juda ko'p. Til va madaniyat jihatidan olib qaraganda, har bir millatning shevasi, dialektlari bor. Iboralar tushunilishi qiyin bo'lgan qatlamga mansub til birliklaridir. Ular har bir milliy madaniyatning in'ikosi bo'lgani bois, multilingualizm muhitida ushbu til birliklari o'rtasida kuzatiladigan sinonimiya, antonimiya va omonimiya hodisalarini o'qitish ayniqsa, qiyinchilik tug'diradi. Darsning samarasini oshirish va talabaga tushunarli bo'lishi uchun metodik ta'minotni to'liq shakllantirish lozim. Bunda o'qituvchi turli kitoblardan, taqdimot va zamonaviy metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiq. Yuqorida bunga misollar berib o'tildi va bu iboralarning, so'zlarning variantlari bo'yicha tadqiqot qilish kerakligi yuzasidan xulosa qilish imkonini beradi. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tilining

frazeologizmlarni o'qitishga doir adabiy manba yaratilsa, boshqa millatlar uchun ham, mutaxassislar uchun ham qulay bo'ladi.

#### **ADABIYOT:**

O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni, 23.09.2020-yil O'RQ-637-son // <https://lex.uz/docs/-5013007>

O'zbekiston Respublikasining Davlat tili to'g'risida Qonuni, 21.12.1995-yil 167-I-son // <https://lex.uz/docs/-121051>

*To'xtamishova N.X.* So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari // Ijodkor o'qituvchi. 2022, №24. -B. 284-286.

*Абдукодирова Н. и Кадирова Х.* (2024). УЗБЕК ТИЛИ ФЕ'Л ЗАМОНЛАРИНИ О'КИТИШДА ЭЛЕКТРОН БАЗА ЯРАТИШ. *Язык и культура Узбекистана*, 5 (2). <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-cultural/article/view/78>.

*Кадирова Х. Б.* ФОРМЫ ПОДАЧИ ИНФОРМАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ УЗБЕКСКОМУ ЯЗЫКУ // Вестник науки и образования. 2023. №11 (142)-2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formy-podachi-informatsii-v-obrazovanii-uzbekskomu-yazyku>

## MUNDARIJA:

1	<b>Muhammedova S. Shirinova Y.</b> Ko'p tillilik va ko'p madaniyatlik muhitida o'zbek tilini o'rgatish masalalariga doir.....	3
2	<b>Kadirova X.B.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda mustaqil ta'limning ahamiyati.....	7
3	<b>Iskandarova G.T.</b> O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganishda so'z ma'nolarini o'zlashtirish.....	15
4	<b>Musulmanova N.</b> Filologiya yo'nalishi rusiyzabon guruhlarida o'zbek adabiyoti fanini o'qitishda asar tahlili muammolari.....	21
5	<b>Isayeva Sh.</b> Adabiy o'qish darslarida ruhiyat masalalarining o'rganilishi..	25
6	<b>Do'smuradova Y.</b> Badiiy matnni tahlil qilish tamoyillari.....	31
7	<b>Turakulova O.A.</b> O'zbek tili mashg'ulotlarida adabiy o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	35
8	<b>Məmmədov X. Kadirova X.</b> X(iks)-femik xarakterli özbək və azərbaycan atalar sözlərinin tipoloji xüsusiyyətləri.....	39
9	<b>Elova D.Q.</b> O'zbek tilining rasmiy axborot uslubini yaratishda nutq uslublarining ahamiyati.....	45
10	<b>Abdulkhaimova O.</b> O'zbek muloqot xulqining sotsiologik xususiyatlari.....	56
11	<b>Xo'jayev N.</b> O'zbek tilida murojaat shakllari va ularning gender xoslanishi.....	61
12	<b>Aytniyazova N.</b> O'zbek va qoraqalpoq tillarida oziq-ovqat mavzusidagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlari.....	66
13	<b>Nasirdinova O.</b> Lingvostatistika – tilshunoslikning zamonaviy va amaliy sohasi.....	70
14	<b>Khidoyatova D.A.</b> Views of eastern thinkers on interactive education and its principles.....	75
15	<b>Davronov A.S.</b> O'zbek tilini badiiy filmlar va badiiy adabiyotlar vositasida o'rgatish.....	79
16	<b>Аликулова М.</b> Анализ изучения языка и стиля произведений А.И.Куприна.....	82
17	<b>Bazarova D.B.</b> Ta'lim rus tilida olib boriladigan guruhlarda "o'zbek tilida so'z tarkibi" mavzusini o'rgatish tajribasidan.....	88
18	<b>Yo'ldosheva Y.A.</b> Grafologik tahlil qilish metodikasi.....	91
19	<b>Beysenova A. Kadirova X.</b> Soliq sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlaridagi lingvistik muammolar.....	96
20	<b>Pardayeva M.Ch.</b> Xorijliklarga o'zbek tilini maqsadli o'qitishda yuzaga keladigan muammolar va muqobil yechimlar.....	102
21	<b>Shodmanov T.A.</b> O'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda autentik materiallar uchun topshiriqlar tuzish metodlari.....	107
22	<b>Abduqodirova N.</b> Multilingualizm muhitida shakl va ma'no munosabatlarini o'qitishning lingvokulturologik jihatlari.....	112